

IBN OBIDINNING HAYOTI VA ILMIY FAOLIYATI.

Tursunov Muxiddin Dovudovich

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

“Islom tarixi va manbashunosligi IRCICA”

kafedrası 1-kurs tayanch doktoranti

tel: +998945261940

Annotatsiya: Bu maqolada Ibn Obidin nomi bilan tanilgan hanafiy mazhabining yetuk olimlaridan birini yashagan davri, u kishining bizgacha yetib kelgan ilmiy merosi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, allomaning fiqh ilmiga qo'shgan hissasi hamda, muallif yozgan bir necha asarlari haqida ham qisqacha ma'lumotlar keltiriladi. Bundan tashqari alloma yozgan kitoblarining bir nechtasi nomlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Ibn Obidin, Hanafiy fiqhi, Raddu-l-muhtor, fiqh ilmi, tarix, tajvid, Alloma Ibn Obidin, Ustozlari, Muhammad Kazbariy, Shom, Qozi, “Tanbeh al-vulot va-l-hukkom”.

Ibn Obidin nomi bilan tanilgan olimning asl ismi Muhammad Amin ibn Amr ibn Abdulaziz ibn Ahmad ibn Abdurrahmon ibn Najmuddin ibn Muhammad Solihiddindir. U kishi milodiy 1776 (hijriy 1197) yili Damashq shahrida tijoratchi oilasida tavallud topganlar. Yoshligidan yaxshi ta'lim-tarbiya ko'rgan va Qur'oni Karimni to'liq yod oldi. Otasi tijorat bilan shug'ullangani sababli o'g'li do'konda savdo ishlarida otasiga yordam bergan. Tijorat bilan mashg'ul bo'lishiga qaramay, Qur'on qiroatini tildan qo'ymasdi. Bir kuni do'konga kelgan xaridorlardan biri uning qiroatiga e'tiroz bildiradi.

Birinchidan, u Qur'onni tajvid qoidalariga to'la rioya qilmayotganini aytadi, ikkinchidan esa, tilovatni eshitish vojib bo'lishiga qaramasdan do'kondagi odamlar tijorat, oldi-sotdi bilan mashg'ul ekanliklarini aytib, ularni gunohga giriftor qilayotganini aytadi. Chunki Alloh taolo Muzzammil surasining to'rtinchi oyatida shunday marhamat qiladi: “Qur'onni tartil bilan (dona-dona qilib) tilovat qiling”! Bu oyatdan bilinadiki Qur'onni tajvid qoidalari asosida o'qish farzdir. Qur'onni tajvid qoidasi asosida o'qimagan odam gunohkor bo'ladi. Qolaversa, uni munosib bo'lmagan joyda o'qiyapsan. Odamlar tijorat bilan mashg'ul bo'lishgani uchun, uni tinglashmaydi”, deb tanbeh beradi. Chunki Alloh taolo A'rof surasining 204-oyatida shunday marhamat qiladi: “Qur'on tilovat qilganda, uni tinglanglar va jim turinglar, shoyad, rahmatga erishsangiz”.

U kishi davrining ulug' olimlaridan biri shayx Said Hamaviy bo'ladilar. Bu e'tiroz Ibn Obidin rahimahullohga juda qattiq ta'sir qilib, u kishi shayx Hamaviy huzuriga

borib, Qur'on ilmlari va tajviddan saboq berishini iltimos qiladi. Olim Ibn Obidinga Imom Shotibiy va Jazariy kitoblaridan tajvid qoidalarini yodlashni buyuradi. Shogird u kitoblarni to'la yod olganidan keyin ustozidan sarf, nahv va Imom Shofi'iy fiqhini o'rganishga kirishadi.

Shayx Muhammad Solimiy Muhammad Aminga tafsir, hadis, mantiq ilmlarini o'rgatib, haqiqiy ilm hanafiylar oldida ekanini, fiqh esa tom ma'noda hanafiylar qo'lidaligini anglatadi va uni hanafiylik mazhabi fiqhiga qiziqtirib: "Sen Imom Abu Hanifa mazhabi masalalarini ham o'rgansang, ko'p ajoyib va g'aroyib kashfiyotlarni ko'rasan, u mukammal mazhabdir", deydi.

Ibn Obidin ustozini buyrug'iga itoat qilib, Imom Abu Hanifa mazhabiga doir usul va fiqh kitoblarining hammasini o'qib chiqadi. Tez orada davrining atoqli olimlari darajasiga yetadi.

Keyin ilmni yanada oshirish maqsadida o'sha davrlardagi ilm markazlaridan biri bo'lmish Misrga yo'l oladi va u yerning taniqli olimlaridan birma-bir ijozalar va shahodatnomalarni qo'lga kirita boshlaydi. Bundan tashqari dars berish va kitob yozish ishlarini ham boshlab yuboradi. Hatto, XIX asrning eng buyuk faqihlaridan biri sifatida dong taratadilar, hamda o'z davrning mashhur olimlariga ustozlik qiladilar. U yerda Amr Shayx bilan uchrashib, saboq berishini so'raydi. Amr Shayx o'zi bilgan barcha ilmlarni unga o'rgatadi. Ibn Obidin Shomning taniqli muhaddisi shayx Muhammad Kazbarydan ham ta'lim oladi. Muhammad Kazbary shogirdiga o'zi ta'lim bergan ilmlarni boshqalarga ham o'rgatishiga ijozat beradi. Bunday daraja ustoz sinovidan o'tgan salohiyatli shogirdlargagina nasib etadi.

Ibn Obidin rahimahulloh o'z asarlari ila tadqiq va tahqiq ishlarini kamolga yetkazganligini ko'rsatib berdi, fiqhni teran anglashini barchaga namoyon qildi. Shu sababli bu alloma fiqhning mumtoz davrida eng oxirgi faqihlaridan biri sifatida tarixda qoldi. Alloma o'z davrining yetuk olimlaridan hisoblanib, bugungi kunda uning asarlarisiz hanafiy fiqhini tasavvur qilib bo'lmaydi. Ibn Obidinning ko'plab asar va risolalari bo'lib, ulamolar tomonidan bu asarlarga qayta-qayta murojaat qilinishi asarlarning muhim manba ekanidan dalolat qiladi. Olimning eng mashhur kitoblari quyidagilardir:

1) "ar-Radd al-muxtor 'ala ad-Durr al-muxtor" ("Ixtiyor qilingan dur" nomli asarga hayratlanarli izohlar"). Bu ibn Obidin rahimahullohni shuhratlarga burkagan mazkur shoh asari hisoblanib, u Muhammad al-Haskafiy (1616-1677) rahimahulloh qalamiga mansub "ad-Durr al-muxtor" sharhiga bitilgan hoshiyadir. Mazkur "ad-Durr al-muxtor" esa asli kelib-chiqishi xorazmlik bo'lgan hanafiy faqihi Muhammad ibn Abdulloh al-Xatib al-Hanafiy at-Temirtoshiy (1532-1595) rahimahullohning hanafiy fiqhiga oid matn kitobi "Tanvir al-absor" nomli asariga bitilgan sharh hisoblanadi.

Bugungi kunda "ar-Radd al-muxtor"ni ko'rmagan odam fiqhni teran anglay olmaydi, uni o'qib chiqmagan tolibi ilm hanafiy fiqhini mukammal bila olmaydi,

fiqhning daqiq masalalarini, nozik jihatlarini tushunmay qolaveradi. Boshqa mazhab vakillari ham hanafiy fiqhini bilishda “ar-Radd al-muhtor”ga murojaat qilmay qolmaydilar. Mazkur shoh asar 6 jild qilib toshbosmalarda nashr etilgan, uning zamonaviy nashrlari 11 va 14 jild qilib chop etilmoqda.

2) “al-Uqud ad-durriya fiy tanqih “al-Fatoviy al-homidiya” (“Maqtovchi fatvolar”ni tozalashda marjon shodalari”). Bu Homid ibn Ali ibn Ibrohim al-Imodiy ad-Dimashqiy (1692-1757) rahimahulloh qalamiga mansub asarining tuzatilgan va qayta ishlangan varianti hisoblanadi. Muallif ushbu fatvolar to‘plamini 1725-1742-yillarda 18 yil Shomda qozilik qilgan vaqtda tushgan savollarga javoban yaratgan edi. “al-Uqud ad-durriya” 2 jild qilib Qohirada nashr etilgan.

3) “Nasamot al-ashor ’ala sharh “al-Manor” (“Chirog‘don” nomli asarning sharhida saharlar shabadasi”). Bu taniqli hanafiy olimi, “Tafsiri Nasafiya”, “Kanz ad-daqiq” asarlari muallifi Hofiziddin Abul-Barakot an-Nasafiy (1232-1310) rahimahullohning usul al-fiqhga oid kitobining sharhi hisoblanadi.

4) “Minhat al-Xoliq ’ala al-Bahr ar-roiq” (“Shirin dengiz” nomli asarga Yaratganning in’omi”). Bu mashhur hanafiy olimi Zayniddin (Zayn al-obidin) ibn Ibrohim ibn Muhammad ibn Nujaym al-Misriy (1519-1563) rahimahulloh asariga bitilgan hoshiya sharhidir. U “al-Bahr ar-roiq” bilan birga nashr qilingan.

5) “Majmuat ar-rasoil” (“Risolarlar to‘plami”). Bu Ibn Obidin rahimahullohning 32 (o‘ttiz ikkita) risolasi jam qilingan to‘plam bo‘lib, unda olimning eng muhim risolalari to‘plangan. Roppa-rosa 600 sahifadan ortiqroq mazkur to‘plam 2 jild qilingan va ular hanafiylik fiqhi rivojiga katta hissa bo‘lib qo‘shilgan.

Payg‘ambarimiz alayhissalomning avlodlariga bag‘ishlangan “al-Ilm az-zohir”, fatvo berish qoidalariga bag‘ishlangan “Uqudi rasm al-muftiy”, hayz masalalariga oid “Manhal al-voridin”, ishorati sabboba haqidagi risola, mayyit marosimlari va tilovatga haq olish masalalariga oid “Shifo al-alil”, ramazon oyini ko‘rish masalasiga oid “Tanbeh al-g‘ofil”, Payg‘ambarimiz alayhissalom va sahobalarni haqorat qilganlarning hukmiga oid “Tanbeh al-vulot va-l-hukkom”, naqd va qog‘oz pullar masalasiga doir “Tanbeh ar-ruqud ’ala masoil an-nuqud”, urf-odat masalalariga bag‘ishlangan “Nashr al-urf” singari risolar juda muhim ahamiyatga ega.

Ibn Obidin o‘z davrining yetuk ulamolaridan hisoblanib, ko‘plab yozgan asarlaridan tashqari, o‘zining izdoshlari hisoblanmish shogirdlar ham chiqarganlar. Quyida allomaning bir nechta shogirdlarini eslatib o‘tamiz. Bular: Abdulg‘ani Miydaniy, Hasan Baytori va Ahmad Afandi Islombuliy va boshqa olimlar Ibn Obidindan ta’lim olishgan va zamonasining yetuk allomalari hisoblanadi.

Ibn Obidin bizzgacha yetib kelgan kitoblaridan eng mashhuri “Raddul Muxtor ala Durrul Muxtor” (Adashganlarni tanlangan durlarga yo‘llovchi) dir. Bundan tashqari, uning turli ilmlarga bag‘ishlangan “Raf‘ul anzor amma avrodahu al-Halabiy ala Durrul Muxtor” (Durrul Muxtorga Halabiy qo‘shgan narsalarga nazarlarni

qaratish), “Nassamatul al-asxor ala sharhi Minor” (Minor sharhiga tong shabadalari), “Xoshiya alal Mutul” (Mutulga hoshiya), “Ar-Rohiqul maxtum” (Muhrlangan shinni), “Xavosh ala tafsiril Bayzoviy” (Bayzoviyning tafsiriga yozilgan hoshiya), o‘ttiz ikki risoladan iborat “Majma’atur rasoil” kabi asarlari bor.

Ibn Obidin rahimahullohning o‘g‘li Alouddin Muhammad ad-Dimishqiy (1828-1889) rahimahulloh ham o‘z davrining taniqli faqih sifatida ilmiy faoliyat olib borganlar. U islomning ilk zamonaviy konstitutsiyasi sifatida ko‘riladigan mashhur “al-Majallat al-adliya”ni tuzuvchilardan biri. U otasining tugallanmay qolgan “ar-Radd al-muhtor” asarini tugallab, “Qurratu uyun al-axyor”, deb nomlaganlar. “Nur al-iyzoh”ga “Me’roj an-najoh” nomli sharh bitganlar, shuningdek, sodda til bilan yozilgan “al-Hadiyyat al-aloiya” nomli fiqhiy asari ham bor.

Hanafiy mazhabida sermahsul ijod qilgan ulamolardan biri va ilmiy salohiyati bilan butun Mag‘rib va Mashriq olimlarini hayratga solgan Ibn Obidin 54 yil mobaynida nodir kitoblar va risolalarni o‘z muxlislariga taqdim etdi. Yozgan asarlari ilm sohiblari tomonidan yuksak e’tirofga sazovor bo‘lgan. Ko‘plab ilmlarni hosil qilganidan keyin Ibn Obidin rahmatullohi alayh yanada ilmni ziyoda qilish maqsadida Amr shayx rahmatullohi alayh bilan uchrashib, ilm o‘rgatishini so‘raydi. Amr shayx rahmatullohi alayh o‘zi bilgan barcha ilmlarni unga o‘rgatadi.

Ibn Obidin rahmatullohi alayh ilm chanqog‘ini qondirish va ilm kosasini to‘ldirish maqsadida taniqli Muhaddisi Shayx Muhammad Kazbariy rahmatullohi alayh bilan uchrashib, undan ko‘pgina ilmlarni o‘rgandi. Muhammad Kazbariy rahmatullohi alayh shogirdiga o‘zi ta’lim bergan ilmlarni boshqalarga ham o‘rgatishiga ijozat beradi. U ilm tarqatish, dars berish va kitob yozishda katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Hatto u barmoq bilan sanarli darajadagi buyuk olimlardan biriga aylandi. Ibn Obidin rahmatullohi alayhning zamonasidan keyin uning shogirdlari shayx Abdulg‘aniy Miydaniy, shayx Hasan Baytoriy hamda Ahmad Afandi Islombuliyalar va yana ko‘plab olimlar ta’lim olishgan.

Ibn Obidin rahmatullohi alayh namoz o‘qiganlarida Rasulullohni ko‘z qirralari bilan ko‘rib turar ekanlar. Agar namozlarida rasulullohni ko‘rmasalar biror-bir sunnatni tark qilganlaridan deb, bilarkanlar. Ibn Obidin rahmatullohi alayhning haybatlari va viqorlari shu darajada ediki, hatto barcha olimlar haybatidan qo‘rqib turardi. Ibn Obidin taqvosi, iffati, salohiyati va qanoatining go‘zalligi bilan butun dunyoga tanilgan. Butun Mag‘rib va Mashriq shayx olimlari uning ilmiy salohiyatini ko‘rib, u kishini tengi yo‘q olim ekanligiga tan berishgan. Ibn Obidin rahmatullohi alayh yozgan va tasnif etgan kitoblari bilan islom mamlakati kutubxonalarini to‘ldirib tashlangan. Asarlari esa chuqur bilim asosida yozilgani, daqiq bahslari, balog‘at va fasohatli tili, yuksak ma’rifati bilan ajralib turadi. Xatto mujtahidlik darajalari maqomidan o‘z o‘rnini egallashga o‘lgurdi.

Mashhur olim Ibn Obidin Abu Yusufning “Amoliy” kitoblari haqida shunday deydi. “Amoliy” imloning jam’idir. Bunda, Muftahid o‘tirganda uning atrofida shogirdlari qog‘oz-qalamlarini olib o‘tiradi. So‘ng, olim ilmda Alloh taolo unga bildirgan narsani yoddan gapiradi. Shogirdlar uni yozib boradi. Keyin, yozgan narsalarini jamlab kitob qiladilar. Ana o‘shani “imlo” yoki “amoliy” deb ataydilar. O‘tgan fuqaho, muhaddis va arab tili olimlarining shundoq odatlari bo‘lgan”.

Jaloliddin Rumi hazratlari aytadi: barcha maxluqotlar suv ichishi bilan to‘yadi. Ammo baliq suv ichida yursa ham to‘ymaydi;

Ey ilm toliblari, guyo sizlar ham suvdagi baliqqa o‘xshab, ilmga to‘ymanglar; Yana Rumi hazratlari aytadiki: “Bir mard haq valiy bo‘lish uchun qanchadan-qancha yillar va asrlar kerak bo‘ladi”.

Ilm ahllari ham ilm talab qilishda o‘zlarini go‘yo bu zotga qiyos qilsalar, foydadan xoli bo‘lmaydi. Chunki Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallam aytadilar: “Kim o‘zini bir qavmga o‘xshatsa, bas u o‘shalardandir”, deganlar. Allohning mahbub qullaridan Robiya Adabiya rahmatullohi alayh aytadilar: “Kim o‘zini Payg‘ambarlarga o‘xshatsa uning asari unga albatta yuqadi” deydi. Demak bizlar ham Allohning fazlidan umidvor bo‘lib, ilm olishga har doim harakat qilishimiz maqsadga muvofiqdir. Hanafiy mazhabimiz fiqhiga doir mashhur asarlar muallifi Ibn Obidin hijriy 1252-yili ellik to‘rt yoshida Damashqda vafot etgan. Bu allomaning qabri “Bobus sag‘ir” qabristonida joylashgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Ravzul Bashar”, 220-bet.
2. “Azhariya”, 2-juz, 254-bet.
3. “Al-Fathul mubin”, 3-juz, 147-148- betlar.